O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

DORIVOR QORA RAYHON (*OCIMUM BASILICUM* L) O ‘SIMLIGINING ONTOGENEZI

Mamatkulova Iroda Ergashevna
O‘zbekiston Milliy unversiteti Jizzax filiali
Namozova Mahliyo Asliddin qizi
O‘zbekiston Milliy unversiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: O‘simlikning ontogenezi - urug‘larning unib chiqishidan hamda to‘liq nobud bo ‘lishigacha bo‘lgan vaqt ichida uning o‘zgarib turadigan morfologik holatlarning ketma-ket tartibiga aytiladi. O‘simliklarda ontogenez davrlari bir yillik hamda ikki yillik monokarp o‘simliklarda faqat bir marta namoyon bo ‘ladi. Ko‘p yillik (polikarp) o‘simliklarda embrional, yuvenil davrlar bir marta sodir bo‘ladi, generativ organlar esa ko‘p marta takrorlanadi.

Kalit so‘zlar: *Ocimum basilicum L*, ontogenez, latenlik, verginil, generativ, sinil, askorbin kislotasi, stomatit.

Qora rayhon yoki oddiy Rayhon (*Ocimum basilicum L*) bir yillik o‘t o‘simlik bo‘lib uning ildiz tizimi tarvaqaylab ketgan, yuzaki joylashgan va poyasi tekis, balandligi 50-70 smni tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) ko’rinishi

Bu o‘simlikning gullari ikki labli, oq, och pushti, kamroq binafsha rangga ega bo‘lib, apikal barglar va barglar qo‘ltig‘idan tartibsiz burmalarda o‘sadi hamda gullash may va sentyabr oylari orasida sodir bo‘ladi. Mevasi to‘rtta quyuq jigarrang yong‘oqdan iborat bo‘lib, ular pishganidan keyin bir-biridan ajralib chiqadi va 1000 urug‘ning massasi 0,5 - 0,8 g.urug‘lar to‘rt yildan besh yilgacha yashovchan bo‘ladi. O‘simlikni hozirda Eron, Afrika, Amerika qit‘asining tropik mintaqalarida, Kavkazda, Xitoyda keng tarqalgan [1]. O‘simlik tarkibida efir moylari va bioaktiv birikmalarning tarkibi, shuningdek ishlab chiqarilishi genetik va atrof-muhit

omillariga ta‘sir qiladi. Atrof muhit omillari orasida yorug‘lik nafaqat o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishi uchun hayotiy energiya bilan ta ‘minlaydi, balki o‘simlikga xos javoblarni tetiklash uchun tashqi signal sifatida ham ishlab, efir moylari va flavonoidlar, askorbin kislotasi, karotinoidlar, tokoferollar, ferment antioksidantlari kabi fitokimyoviy moddalarning to‘plangan. O‘simlik infuzioni gastrit, ko‘k yo‘tal uchun antitussiv vosita sifatida, nevroz, bosh og‘rig‘i, bronxial astma, shamollash va burun oqishi sifatida ishlatilib hamda barglarining tashqi tomondan tomoq og‘rig‘i stomatit bilan yuvish uchun ham keng qo‘llanilib kelinmoqda. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) ontogenezi 4 ta davrlarni o‘z ichiga olib (latent, verginil, generativ,sinil) va hayot bosqichlarini (urug‘, ko‘chat, yosh, yetilmagan, erta generativ, o‘rta generativ, kech generativ, qarilikdan past, qarilik) bosib o‘tadi uning ontogenezning oxiri tabiiy o ‘lim bilan tugaydi. Bu o‘simlikda vegetativ ko‘payish yo‘q [2].

Latentlik davr. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) o‘simligi bu davri dam olish davri ham deyilib bunda zich po‘stloqni hosil qiladi, u nihol unib chiqish bilan borib xona haroratida 3-4 kunda, issiqxonalarda esa 6-8 kunlarda unib chiqadi.

Verginil davr. Bu davra o‘simlikda pigmentatsiyasi jarayoni dastlab amalga oshadi keyinchalik 14 - 16 kunlarda barglarning birinchi juftligi ochiladi va o‘simliklar balog‘at yoshiga o‘tadi. Barglari novdasimon shaklli, tuxumsimon va keng tuxumsimon yoki qavariqsimon. bo‘lib unda ildiz tizimi ham yaxshi rivojlanadi apikal kurtak 0.5 sm va qo‘shimcha kurtaklar paydo bo‘ladi.

Generativ davr. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) o‘simliging generativ davrida generativ organlarning rivojlanishi bilan birga yashil massaning ko‘payishi (iyun oxiri-iyul) sodir bo‘ladi. O‘simliklar generativ nihollar sonining ko‘payishi hisobiga ko‘plab bir-uch yon nihollarga ega. Yon nihollarida simpodial shoxchalar bilan to ‘pgullar rivojlangan. Generativ organlar avgust oyida yetuklikka erishadi. Gullash vaqtiga kelib, asosiy novdalar shoxlanadi va diametri 6-10 sm ga etadi. Urug‘larning pishishi avgust oyining o‘rtalarida boshlanib gullashning tugashi bilan bir vaqtda meva beradi.

Sinil davr. Bu davr sentyabr oyining ikkinchi yarmida o‘simlik qarilikdan o‘tadi va oktyabr oyining boshlarida ob-havo to‘satdan sovib ketganda ommaviy ravishda nobud bo‘ladi. Bu o‘simlik oddiy individ bo‘lib, morfologik jihatdan parchalanmaydi, ontogenetik sikli monosentrik biomorflardan iborat. Morfologik tuzilmalarning yaratilish muddatlari va rivojlanish darajasi ularning o`sish yo`liga bog`liq. Ko‘chat yetishtiriladigan issiqxonadagi noqulay sharoit tufayli verginil davri hayot bosqichlari juda uzoq davom etadi [3].

Xulosa. Qora rayhon (*Ocimum basilicum L*) o‘simligining umumiy ontogenezini o‘rganish ushbu o‘simligining keng tarqalishiga imkon beradi.

Foydallanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Глухов А., Кустова О., Интродукция и перспективы использования видов рода базилик (Ocimum) на юго-востоке Украины. Изд. Вебер. Донецк. 2009, стр. 69-83.

2. Жукова Л. А., Онтогенез и циклы воспроизведения растений. Журнал общей биологии. XLIV, № 3, 1983, стр. 361-373.